

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti
geografiya fani o'qituvchisi Xudoyorov Lochinbek
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi
2-kurs talabasi Xolmonov Sarvar

ILMIY VA XALQ TOPONIMLARI

Annatatsiya: Yer yuzasidagi har bir joyning o'ziga xos va mos bo'lgan ba'zan esa taajjublanarli bo'lgan nomlarni eshitamiz, ko'ramiz yoki o'qiymiz. Ammo bir narsa aniqki, Yer yuzasining goh quruqlik, goh suvlik qismi bo'lmasin nom berilmagan joyning o'zini topishning iloji yo'qdir. Toponimikani fan sifatida o'rganishda ba'zan mahalliy va xalqaro miqyosda g'alati va tushunarsiz bo'lgan tarjima nomlanishlarni uchratamiz. Ularning ba'zilari mifologik, diniy, dunyoviy, tarixiy ma'nolarga ega bo'lgan qarashlarga duch kelamiz.

Kalit so'zlar: xalq, qabila, urug', millat, elat, Hindikush, Ajal vodiysi, Borsakelmas, Dashti Marggoh, Dashti Lut, O'lik dengiz, Amu - Amur, Avstriya - Avstraliya, Jurjon - Juzjon, Mari - Mariy, Neva - Niva, Qorasuv-Siyoxob, Qizilsuv-Surxob.

Abstract: We hear, see, or read names that are unique and appropriate, and sometimes surprising, for every place on Earth. But one thing is certain that it is impossible to find the place itself, which is not named, whether it is land or water. In the study of toponymy as a science, we sometimes come across translation names that are strange and incomprehensible at the local and international level. Some of them have mythological, religious, secular and historical meanings.

Key words: people, tribe, clan, nation, nation, Hindikush, Ajal Valley, Borsakelmas, Dashti Marggoh, Dashti Lut, Dead Sea, Amu - Amur, Austria - Australia, Jurjon - Juzjon, Mari - Mariy, Neva - Niva, Karasuv-Siyokhob, Kyzilsuv-Surkhob.

Geografik nomlar asosan ikki xil bo'ladi: ayrim geografik obyektni bildiruvchi atoqli ot, nom, geografik obyekt hamda voqeа va hodisalarning umumiy nomini bildiruvchi turdosh otlar. Atoqli geografik nomlar **toponimlar** deyiladi. Yunoncha topos - joy va onoma - ism, nom so'zlaridan tashkil topgan.

Toponimlarga ularning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi ma'nosi, o'zgarishi, talaffuz qilinishiga kishilar juda qadim zamonlardan qiziqib kelishgan. Har bir geografik nom orqasida qanchadan - qancha voqeа va hodisalar, tabiiy hodisalar, tabiiy xususiyatlar, xalq, qabila, urug', millat, elat va ayrim kishilarning hayot faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlar yashirinib yotadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Tyanshan, Pomir, Amudaryo, Qizilqum nomlarida qancha voqeа va hodisalar, tarix yashirinib yotibdi. Nega ular shunday nomlar bilan ataladi?

Har bir kishi, avvalo, o'z joyi - shahri, qishlog'i, mahallasi, ko'chasi nomini, ularning qanday hodisa, voqeа, tabiiy xususiyat, qanday inson nomi bilan bog'liqligini bilishni istaydi. Nega Hindikush, Ajal vodiysi, Borsakelmas, Dashti Marggoh, Dashti Lut, O'lik dengiz deyiladi? Chet ellardagi nomlarning ba'zilarini o'zbek tiliga tarjima qilinsa, g'alati, ba'zan bema'ni nomlarni ko'rasiz. Krivoy Rog - Egri shox, Tbilisi - Qaynar buloq, Vladivostok - Sharqni egalla, Velikiye Luki - Katta yoylar, Los - Anjeles - "Bizning janobi oliylari farishtalar qiroli" va h.k.

Joy nomlarini yozishda ham nozik tomonlari bor. Ba'zan bir harf o'zgarishi bilan tamomila boshqa joy tushuniladi. Masalan: Amu - Amur, Avstriya - Avstraliya, Jurjon - Juzjon, Mari - Mariy, Neva - Niva va boshqalar.

Bularning hammasini **toponimika** fani o'rganadi. Toponimika ham yunoncha "topos" va "noma" so'zlaridan hosil bo'lgan. Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, o'zgarishini, ularning mazmuni, shakli va to'g'ri yozilishini o'rganadi. Toponimika geografiya, tarix va tilshunoslik (lingvistika) fanlari o'rtaсидаги fan bo'lib, ular bilan juda bog'langan. Bu fanlarning tadqiqot uslublaridan foydalanib ish ko'radi.

Geografik voqeа va hodisa hamda obyektlarning umumiy nomini, turdosh otlarni, ya'ni termin (atama)larni geografik terminshunoslik o'rganadi.

Har bir fanning terminlarini o'rganuvchi terminshunoslik (atamashunoslik) fanlari mavjud. Geografik terminshunoslik geografik terminlarning ma'nosi, kelib chiqishi (etimologiyasi), o'zgarishi, to'g'ri yozilishi va manbalarini o'rganadi. Har bir fanni chuqur o'rganish uning terminlarini qanchalik to'g'ri va to'liq bilishga bog'liq.

Har bir fanning rivojlanishida mukammal o'rganilgan va ilmiy ishlab chiqilgan terminologiyaning ahamiyati kattadir. Terminlarning aniqligi, mukammallagi fanning rivojlanishini ma'lum jihatdan belgilab beradi. Termin yordamida ma'lum hodisa tasnifi ixcham beriladi va o'sha hodisani tez o'zlashtirib olish imkoniyati yaratiladi.

Joy nomlarini o'rganuvchi mutaxassislar **toponimistlar** deb, terminlarni o'rganuvchi mutaxassislar **terminologlar** deb ataladi.

Toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlar kishilar bilimini juda kengaytiradi hamda madaniy saviyasini o'stiradi. Deyarli barcha buyuk kishilar, allomalar toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlarga juda qiziqqan va o'zlari ham fanning bu sohalari bilan shug'ullanganlar.

Geografiya darslarida toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarning fanga qiziqishini kuchaytiradi va shu sohada chuqr bilim olishlariga yordam beradi.

Geografik nomlar qanday obektlarning nomlari ekanligiga qarab quyidagi guruhlarga bo`linadi.

Toponim - lotincha so`zdan olingan bo`lib, joy nomi demakdir. Yer yuzidagi barcha geografik obektlarning atoqli otlari har qanday toponim biron ma'noni anglatadi.

Toponimiya – ma'lum hududdagi joy nomlarining yig`indisi.

Oronim – relefning burma shakllari tog`, tepalik, cho`qqi va boshqalarning nomlari.

Gidronim – umumiy suvliliklar nomi. Gidronimlar quyidagi turlarga bo`linadi.

Potamonim – daryo, soy, ariq va kanallarning nomi.

Limnolim – ko`l, buloq, hovuz va quduqlar nomi.

Pelagonim – okean, dengiz va qo`ltiqlar nomi.

Oykonim – aholi yashaydigan manzilgohlar nomi.

Goronimlar – shaharlardagi ko`chalar nomi.

Antroponimlar – kishilar nomi, laqabi, familiyalaridan kelib chiqqan nomlar.

Etnonimlar – xalq, qabila, urug'lar nomidan kelib chiqqan geografik atamalar.

Speleonim - g`orlar va yer osti bo`shliqlar nomi.

Agronomilar – shaharlardagi bog`, xiyobonlar nomi.

Xoronimlar – katta hududlar (davlatlar, viloyatlar va boshqalar nomi).

Kalka nomlar – tarjima qilinganda ma'nosi bir xil bo`lgan nomlar masalan, Qorasuv-Siyoxob, Qizilsuv-Surxob.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qorayev S. Toponimika. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T.: 2006
2. Qorayev S. Toponimika va atamashunoslik. Ma'ruza matnlari. T.: 2000
3. Do'simov Z. Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati "O'qituvchi" T.: 1977
4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. "Fan" T.: 1967
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. "O'qituvchi" T.: 1988
6. Do'simov Z. Joy nomlarining izohli lug'ati. "O'qituvchi" T.: 1977
7. Termin tanlsh mezonlari. <<Fan>> T.: 1996
8. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. <<Fan>> T.: 1962
9. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. <<Fan>> T.: 1964
10. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. <<Fan>> T.: 1964
11. Hasanov H. Yer tili. "O'qituvchi" T.: 1977
12. Hasanov H. Geografik nomlar siri. "O'qituvchi" T.: 1985
13. G'ulomov P. Jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. "O'qituvchi" T.: 1994